

# DBT/ 3-sonli SHARTNOMA

## (Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi)

2022 yil 26 yanvar

Denov tumani

“Termiz neft baza” MCHJ keyingi o‘rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi nomidan ishonchnoma № 12-46 27.12.2021 yil asosida faoliyati yurituvchi filial boshlig‘I X.Qosimov bir tomondan va «Denov SEO va JS bulimi» deb ataluvchi nomidan bo‘lim boshlig‘i asosida ish yurituvchi X.I.Saparov ikkinchi tomondan, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli xo‘jalik yurutuvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli Qaroriga asosan, quyidagilar tug‘risida shartnomaga qo‘shimcha ilova tuziladilar:

### 1. SHartnomaning predmeti

1.1.«Etkazib beruvchi», Denov SEO va JS bulimining buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish,Denov SEO va JS bulimi esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to‘lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o‘z zimmalariga oladilar.

1.2.Tomonlar o‘zaro kelishilgan holda ma‘lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko‘zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

1.3.Spetsifikatsiya ma‘lumotlaridan tomonlar o‘z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste‘molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

### 2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari narxlari va xisob-kitob tartibi

2.1.Shartnomaning taxminiy umumiy summasi 7 174 751.40 so‘mni tashkil qiladi. Shundan QQS 935 837 sum 139129 t

Neft mahsulotining nomi, rusumi	Dav. STTSh	O‘lchov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Summasi	QQS
AI-80		tn.	10772	666	7174751	935837.139129

2.2.Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g‘alla ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklari va paxtato‘qimachilik klasterlari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “Toshshaxartransxizmat” AJ, maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish bo‘yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg‘isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg‘isi) o‘tgan chorakdagi birja savdolari natijalariga ko‘ra shakllangan o‘rtacha birja narxlarida shakllanadi.Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasidan shakllangan narxlarda shakllanadi.

2.3.«Etkazib beruvchi», «Iste‘molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so‘ralgan neft mahsulotlarining o‘sha kundagi joriy narxlarini unga ma‘lum

qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

### **3 Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati**

**3.1.** «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

**3.2.** Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

### **4. Tomonlarning javobgarligi**

**4.1.** Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

**4.2.** «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 4 foizi, lekin 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

**4.3.** «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

**4.4.** «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi lekin 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

**4.5.** «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik havfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

**4.6.** «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va havfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

### **5. Fors-major holatlari**

**5.1.** Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

## 6. Boshqa shartlari

6.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.

6.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

6.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

6.4. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

## 7. Tomonlarning yuridik manzillari

<p>«TA'MINOTCHI» Toshkent sh "UZSANOATKURILISHBANK" ATB MFO 00432 STIR 200473847 X/R 22604000400356749701 Filiat boshlig'i X. Qosimov M. O'.</p> 		<p>«ISTE'MOLCHI» Denov tuman Denov tuman SEO va J.S bo'linmasi x/r 100022860222107074110054001 MFO 00845 STIR 200481362 Korxonaraxbari: X.I. Saparov M. O'.</p> 
---	--	---





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"TERMIZ NEFT BAZASI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"TERMIZ NEFT BAZASI" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.02.2007

057

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

200473847

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Joylashgan joyi:

**Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, S.Termiziy ko'chasi 5-uy,**

Guvohnoma:

**Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, YAGONA DARCHA  
MARKAZI**

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш давлат инспекцияси "Ўздавнефтегазинспекция"

# ЛИЦЕНЗИЯ

АА № 0065

Мазкур лицензия билан "TERMIZ NEFT VAZASI"  
(лицензия эгасининг тулиқ номи)  
масъулияти чекланган жамияти

\_\_\_\_\_ га  
Сурхондарё вилояти, Термиз шаҳри, С.Термизий кўчаси, 5-уйда жойлашган нефть омбори ва жамиятга қарашли  
(рухсат этилаган фаолият тури)  
"Балшир", "Жаркўрган", "Қумкўрган", "Денов" ва "Олтинсой" филиаллари орқали автобензини, дизель  
ёнилғиси, мазут, печ ёнилғиси, нефть битуми, техник мойлар ва мойлаш материалларини сотиш билан  
шугулланишга рухсат этилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Сурхондарё вилояти,

Термиз шаҳри, С.Термизий кўчаси, 5-уй

Лицензия эгасининг солиқ тўловчи сифатидаги идентификация рақами: 200 473 847

Лицензия берилган сана: 2018 й. 20 июль

Лицензиянинг амал қилиш муддати чекланмаган

Реестр бўйича тартиб рақами: № 7

Ваколатли шахс: Н. Агзамов  
(исми шарифи, фамилияси)

(имзоси)



Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси)

\_\_\_\_\_  
(имзоси)

М.Ў.

Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси)

\_\_\_\_\_  
(имзоси)

М.Ў.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA PV42802154**

- 1.Loyihaning turi: Xo'jalik shartnomasi.
- 2.Loyihaning nomi.

Loixa ta'minotchi "Termiz neft baza" MCHJ bulan istemolchi Denov tuman Sanitariya Epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limin o'rtasida 2022 yil 26 yanvardan 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga 7 174 751.40 (yetti million bir yuz yetmish to'rt ming yetti yuz ellik bir so'm qiriq) tiyinlik sumlik miqdori 666 tn. AI-80 markali bo'lgan neft maxsulotlarini oldindan 100% to'lovini amalga oshirish sharti bilan yetkazib berish va qabul qilib olish bo'yicha 2022 yil 26 yanvardan №DBT/3-sonli xo'jalik shartnomasi tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:  
Denov tuman Sanitariya Epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 26 yanvarda kiritilgan.

**X U L O S A**

Loyiha O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Denov tuman Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti 3-darajali  
adliya maslahatchisi:**



**X.M.Ismatullayev.**

26/01/2022 yil.